

## FRASUZ TILIDA OTLARNING GRAMMATIK ROD KATEGORIYASI

**Chorshanbiyeva Zarina Kamoliddin qizi**

Qarshi davlat universiteti filologiya va tillarni o‘qitish(fransuz tili) yo‘nalishi

**Aziza Zoirova**

Ilmiy rahbar: fransuz tili va adabiyoti kafedراسi mudiri

E-mail: [zarinachorshanbiyeva8@gmail.com](mailto:zarinachorshanbiyeva8@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Maqola fransuz tilida otlarning rodini aniqlashning bir necha usullari grammatik qoidalar asosida misollar bilan yoritilgan. Ushbu mavzu bo‘yicha izlanishlar nazariy asosda ifodalangan.

**Kalit so‘zlar:** otlarda rod, mujeskoy, jenskiy, artikllar, qo‘shimchalar.

Fransuz tilida otlar ikki rodga bo‘linadi: mujeskoy rod ( le genre masculin ) va jenskiy rod ( le genre féminin).

Otlarning rodi asosan quyidagi belgilar asosida aniqlanadi.

1.Otlar oldida qo‘llangan artikllar yordamida:

Un, une, le, la: un livre, le garçon, une ville, la femme.

2. Otlar oldida artikllar o‘rnida qo‘llanadigan ko‘rsatish sifatlari yordamida: ce, cet, cette

ce problème, cet arbre, cet homme,

cette machine, cette école, cette habitude.

3. Otlar oldida artikllar o‘rnida qo‘llanadigan egalik sifatlari yordamida:mon,ton,son, ma, ta, sa:

ma mère, ta robe, sa famille, son, oncle, mon frère, ton père.

4. Suffikslar yordamida:

- faqat jenskiy rodni ifodalovchi qo‘shimchalar:

-tion, -euse, -trice, -atrice, -esse, -oïse, -ence, -ance, -ité, -ure, -ature, -ette, -atte, -ienne, -ère, -ière, -aise:

vendeuse, traductrice, hôtesse, presse, adresse, actrice, Danoise, écolière, ouvrière, pharmacienne, chatte chienne.

-faqat mujeskoy rodni ifodalovchi qo‘shimchalar:

ment, eur, toir, toire, age, ien, ais, ois, isme.

bâtiment, vendeur, trottoir, bagage, chien, palais.

Otlarda jenskiy rod yasalishi

Otlarning jenskiy rodi mujeskoy rod shakliga turli qo‘shimchalar qo‘shish bilan yasaladi.

Par exemple :

Ouvrier - ouvrière

Physicien - physicienne

Étranger - étrangère

Chanteur - chanteuse

Instituteur - institutrice

- Odamlar, hayvonlar, parrandalar va qushlarning jinsini bildiruvchi so‘zlar alohida- alohida mustaqil so‘zlarga ega bo‘ladi.

Par exemple :

le père - la mère

le frère - la sœur

le mari - la femme

l’homme - la femme

le garçon - la fille

l’oncle - la tante

le neveu - la nièce

le vieux - la vieille

le coq - la poule

le boeuf - la vache

le cheval - la jument

le bouc - la chèvre

le pigeon - la colombe

le tigre - la tigresse

le chat - la chatte

le chien - la chienn

Δ O‘zbek tilida rod bo‘lmagani sababli fransuz tilidagi jenskiy roddagi otlarni tarjima qilganimizda so‘z oxiriga "ayol" so‘zini qo‘shib aytamiz.

Δ Fransuz tilida kasbni bildiruvchi ba’zi otlar jenskiy rod formasiga ega emas. Shuning uchun ular oldiga "femme" so‘zi qo‘yib ishlatiladi:

Un ingénieur - une femme ingénieur

Un écrivain - une femme écrivain

Un peintre - une femme peintre

Bundan tashqari fransuz tilida ikkala rodga ham bir xil qo‘llanadigan otlar mavjud.

Bular: le (la) professeur, un(une) élève, un (une) enfant, un(une) bébé, un(une) artiste, un(une) tractoriste.

Ba'zi otlar jenskiy rodga o'zgacha formaga ega bo'ladi:

Masalan:

Un vieux - une vieille

Un neveu - une nièces

Un copain - une copine

Otlashgan so'zlarning rodini aniqlash

Fransuz tilida boshqa so'z turkumiga kiruvchi mustaqil so'zlar ham otlasha oladi va otga xos bo'lgan belgilarni qabul qiladi. Har bir otlashgan so'z ikkala roddan biriga, agar jonli predmetlarni bildirsa ikkala rodga ham mansub bo'lib, ularning rodi quyidagilarga qarab aniqlanadi:

1. Otlashgan fe'l quyidagi suffikslar orqali otlashsa jenskiy rodga taalluqli bo'ladi:

-ade: promener - la promenade ; fusiller - la fusillade ;

-aison I guruh fe'lining negiziga: lier - la liaison, terminer - la terminaison ;

-ée: couver - la couvée ;

-euse : voyager - la voyageuse , vendre - la vendeuse ;

2. Mujeskoy roddagi otlashgan fe'l suffikslarga ega bo'ladi :

-age : entourer - l'entourage ; fusiller - fusillade ;

-ment : orner - l'ornement ; mouvoir - le mouvement ;

Yana qo'shimcha sifatida shuni keltirish mumkinki fransuz tilida rodi barqaror bo'lmagan otlar ham mavjud. Ularni quyidagi qoidalar asosida o'rganiladi.

Fransuz tilida shaxs nomlarini bildiruvchi bir qancha otlar ham ikkala rodga ham bir xil shaklga ega bo'ladi. Bunday otlarning qaysi rodga mansubligini faqat ular oldida turgan artikl yoki boshqa determinativlar orqali aniqlash mumkin. Bular odatda - e ( enfant ) ga tugagan otlar :

l'aide m - yordamchi ; l'aide f - yordam ;

le critique - tanqidchi ; la critique - tanqid ;

le garde - qorovul ; la garde - gvardiya ;

le mémoire - ilmiy doklad ; la mémoire - xotira ; Fransuz tilida aytilishi , yozilishi bir xil bo'lgan omonim otlar mavjud. Ularning shakliga kelsak, ularda faqat rod farqlanadi. Lekin bu so'zlarning etimologiyasi turlicha :

le livre - ( lotincha librum ) - kitob

la livre - ( lotincha libram ) - pul o'lchovi

le mousse - ( ispancha mozo ) - yunga, kemada shogird bola

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. L.E.Mallina, L.P.Andreychikova, O‘. Turniyozov - Fransuz tili grammatikasi „O‘qituvchi “ nashriyoti 1978- y.
- 2.НиколскаяЕ . К., Т. Й. Голденберг Grammaire Française Moscou , 1982 .
- 3.Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка.- М: Высшая школа, 1976.- С. 110.
- 4.Николская Е . К., Т. Й. Голденберг Grammaire Française - Moscou , 1982 . -290 р.
- 5.Николская Е.К., Голденберг Т.Й. Grammaire Française Moscou , 1965. - 291р.
- 6.[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
7. [www.edufle.fr](http://www.edufle.fr)
8. Н.Х. Juraqobilova . Fransuz tili grammatikasi . Qarshi 2020
9. Yarmanov F.N , Zoirova A.I . Qarshi "Nasaf - nashriyoti" 2019